

№ D7-45/27

2026 y. "26" may

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ

Boshqaruvining

2026-yil “25” may dagi

“23” sonli yig‘ilish bayoni

**“ANOR BANK” AJDA GAROV MULKLARINI BOSQICHMA-BOSQICH
GAROV DAN CHI QARISH VA GAROV NARSASINI ALMASHTIRISH
TARTIBI**

MUNDARIJA

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR.....	3
2-BOB. VAKOLATLI ORGANLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI.....	3
3-BOB. GAROV MULKLARINI KREDITNING ASOSIY QARZI QOLDIG‘IGA MUTANOSIB RAVISHDA BOSQICHMA-BOSQICH GAROVDAN CHIQARISH TARTIBI.	4
4-BOB. GAROV NARSASINI ALMASHTIRISH TARTIBI.....	6
5-BOB. GAROVDAGI MULKLAR BO‘YICHA BOSHQA HARAKATLAR.....	8
6-BOB. YAKUNIY QOIDALAR.....	10

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “ANOR BANK” AJda garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish va garov narsasini almashtirish tartibi» O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni, “ANOR BANK” AJ (keyingi o‘rinlarda – bank deb yuritiladi) Ustavi, bank Kredit siyosati hamda boshqa qonunchilik hujjatlari va ichki qoidalarga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, bank tomonidan garovga olingan mulklar bilan ishlash, xususan, ajratilgan kredit ta‘minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig‘iga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish tartibini yagona mezonlar asosida belgilash, shuningdek, ushbu jarayonda bankning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan amallar ketma-ketligini hamda vakolatli organlarning qaror qabul qilish vakolatlarini tartibga solishdan iborat.

1.2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

garov – garovga qo‘yuvchining garovga oluvchiga mol-mulkni unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi;

garov harakatlari – aktiv ta‘minoti uchun garovga olingan garov narsasini almashtirish, aktiv ta‘minoti uchun garovga olingan mulkni aktivning qisman so‘ndirilganligi sababli qisman garovdan chiqarish, garov narsasining egalik huquqini o‘zgartirish, garov narsasini boshqarish bo‘yicha notarial idoralar tomonidan ishonchnoma olish uchun ruxsat xati taqdim qilish;

kredit qoldig‘i – joriy kredit, lizing, faktoring, bank kafolati, savdoni moliyalashtirish asosida import akkreditivlarining so‘ndirilmagan qismi;

kredit mutaxassisi – sotuv ofisining yuridik shaxslarni kreditlash bo‘limi xodimi;

monitoring mutaxassisi – Bank Sotuv ofisining Kreditlarni monitoring bo‘limi xodimi;

yirik tavakkalchilik — bank birinchi darajali kapitalining 10 foizi va undan yuqori bo‘lgan bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchiliklar;

vakolatli organlar – Bank Boshqaruvi, Kredit qo‘mitasi, Kichik kredit qo‘mitasi;

navbatdagi garov — garovda turgan mol-mulkni garovga qo‘yuvchi tomonidan o‘zga shaxsga (garovga oluvchiga) boshqa talablarni ta‘minlash uchun berish.

1.3. Ushbu tartib bank faoliyatining kreditlash jarayoniga taalluqli barcha bo‘limlari, sotuv ofislari hamda garov ta‘minoti bilan ishlovchi xodimlar uchun majburiydir va garov predmeti bo‘yicha har qanday o‘zgarishlar ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

2-BOB. VAKOLATLI ORGANLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI.

2.1. Kredit qoldig‘i (qarz oluvchi hamda unga aloqador qarz oluvchilarning Bank oldidagi jami majburiyatlari qoldig‘i) 3,0 (uch) milliard so‘mgacha bo‘lgan kreditlar ta‘minoti uchun garovga qo‘yilgan mulklarni garovdan qisman chiqarish hamda garov narsasini almashtirish Bankning Kichik kredit qo‘mitasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Kredit qoldig‘i (qarz oluvchi hamda unga aloqador qarz oluvchilarning Bank oldidagi jami majburiyatlari qoldig‘i) 3,0 (uch) milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan kreditlar ta‘minoti uchun garovga qo‘yilgan mulklarni garovdan qisman chiqarish hamda garov narsasini almashtirish masalsini bank Kredit qo‘mitasida ko‘rib chiqiladi.

2.2. Bank Boshqaruvi korporativ kreditlash departamenti direktori bildirishnomasiga asosan kichik Kredit qo'mitasi tomonidan qoldig'i 3,0 (uch) milliard so'mgacha bo'lgan kreditlar ta'minotiga garovga qo'yilgan mulklar bo'yicha garov harakati yuzasidan yakuniy qaror qabul qilishini ta'qiqlash bo'yicha qaror chiqarishi mumkin.

2.3. Kredit qoldig'idan qat'iy nazar kredit ta'minotidagi garov narsasi depozitga almashtirilishi bank Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, garov mulki uchinchi shaxsga tegishli bo'lib, garovdagi mulkni saqlab qolish maqsadida mulk egasi tomonidan kreditni mulkning baholangan qiymati miqdoridagi qismi so'ndirilgan taqdirda, mazkur mulkni garovdan chiqarish bankning Kichik kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mazkur tartibning 2. va 2.1-bandlarida ko'rsatilgan vakolatli shaxslarning vazifalari (mehnat ta'tili, xizmat safari kabi) turli sabablarga ko'ra boshqa xodimga yuklatilgan taqdirda, ushbu tartibda belgilangan vakolatlari ham vazifasi yuklatilgan xodimga o'tkaziladi.

2.4. Quyidagi loyihalar bo'yicha yakuniy qaror bank Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilinadi:

a) Bankka aloqador shaxslar bilan bog'liq kredit ta'minotidagi garov narsasini almashtirish;

b) qoldig'i bank birinchi darajali kapitalining 10 foiz va undan yuqori bo'lgan bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchiliklar bo'yicha garov narsasini almashtirish loyihalari.

2.5. Kredit qoldig'idan qat'iy nazar sud jarayonidagi va ijro jarayonidagi qarzdorliklar bo'yicha kredit ta'minoti uchun garovga qo'yilgan mulklarni qisman garovdan chiqarish hamda garov narsasini almashtirish Kredit qo'mitasining ijobiy qarori asosida amalga oshiriladi.

2.6. Kredit portfelining sifati, muammoli kreditlarning sotuv ofislarining kredit portfelidagi ulushini inobatga olib, garovga qo'yilgan mulklarni qisman garovdan chiqarish hamda garov narsasini almashtirishni bank sotuv ofislari tomonidan mustaqil ko'rib chiqish vakolatini berish yoki bekor qilish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

2.7. Bank sotuv ofislari uchun belgilangan mustaqil kreditlash limitidan yuqori miqdorda kredit ta'minoti uchun depozit mablag'lari garovi asosida Kredit qo'mitasi tomonidan o'rganib chiqilib, mustaqil ravishda moliyalashtirilgan kreditlar ta'minotidagi depozitni to'liq yoki qisman boshqa turdagi garov bilan almashtirish masalasi Bosh bankda kredit ajratish jarayonidagi vakolatlar darajasida ko'rib chiqiladi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokredit ta'minoti uchun kredit hisobiga sotib olinayotgandan boshqa transport vositasini garovga olish bankning Muammoli aktivlar bo'yicha qo'mitasi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

3-BOB. GAROV MULKLARINI KREDITNING ASOSIY QARZ QOLDIG'IGA MUTANOSIB RAVISHDA BOSQICHMA-BOSQICH GAROVDAN CHIQRISH TARTIBI.

3.1. Kredit shartnomasini imzolangandan so'ng va qarz oluvchiga kredit berilgandan so'ng, kredit shartnomasining garov mulkiga oid alohida shartlari qayta ko'rib chiqilishi va

o'zgartirilishi mumkin. Bunda tashabbuskor sifatida bank ham, qarz oluvchi ham chiqishi mumkin. Barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar faqat yozma shaklda rasmiylashtirilgandan so'ng kuchga kiradi.

3.2. Qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchi tomonidan garovdan bosqichma-bosqich chiqarish yoki garov narsasini almashtirish bo'yicha ariza bankda ro'yxatga olinadi. To'liq hujjatlar taqdim etilgach, ariza 15 (o'n besh) kun ichida ko'rib chiqiladi va tegishli qaror qabul qilinadi.

Bankning tegishli vakolatli organi tomonidan qabul qilingan qaror haqida arizachi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida yozma, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilinadi.

3.3. Kredit shartnomasining shartlarini o'zgartirish (garovdan chiqarish yoki garovni almashtirish) bankning tegishli vakolatli organining ijobiy qarori asosida amalga oshiriladi va belgilangan limiti va cheklovlar doirasida, bankning ichki qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

3.4. Kredit ta'minotidagi mulkni qisman garovdan chiqarish uchun mijoz tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) qarzdorning asoslantirilgan murojaatnomasi;

b) qarzdorning vakolatli organi roziligi;

c) garovda qolayotgan mulk egasining (ta'sischilarining) hamda kredit ta'minoti uchun taqdim etilgan kafil egasining (ta'sischilarining), kredit qaytmaslik xatari yuzasidan sug'urta polisi taqdim etgan sug'urta kompaniyasining vakolatli organi roziligi (Kredit ta'minotidagi boshqa mulklar kredit qoldig'i uchun 125 foizdan ortiq ta'minot bo'lgan holatlar bundan mustasno);

d) zarur hollarda qarzdor korxonaning vakolatli organlari roziligi.

3.5. Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni sotuv ofisining monitoring mutaxassisi qabul qilib olib, shu kunning o'zida qarzdorning arizasini ro'yxatga olinishini ta'minlaydi hamda 3 (uch) bank ish kuni davomida barcha hujjatlarni ilova qilgan holda kredit ta'minotidagi mulkni qisman garovdan chiqarish bo'yicha xulosani tayyorlab, bank Kredit qo'mitasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi.

3.6. Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi garovda qolayotgan mulklar bo'yicha mulklarni ko'zdan kechirgan holda mulk monitoringi o'tkazadi hamda monitoring dalolatnomasi va mulklarning fotosuratlarini xulosaga ilova qiladi. Agar oxirgi marta o'tkazilgan mulk monitoringi mijoz tomonidan qisman garovdan chiqarish loyihasi yuzasidan hujjatlar taqdim qilingan kunga qadar 3 (uch) oy ichida o'tkazilgan bo'lsa, qayta mulk monitoringi o'tkazilishi shart emas. Garovda qolayotgan mulklarning holati yaxshi bo'lgan taqdirda mijozning pul oqimlari, moliyaviy holati, agar mavjud bo'lsa kafilning moliyaviy holati, mijoz tomonidan kreditni to'lov intizomi (kech qolib to'langan to'lovlar bo'yicha kechikish sabablari yoritiladi), garovda qolayotgan mulklarga chegirma (diskont) qo'lanilgan holda yetarliligi tahlil qilinadi va xulosa bankning tegishli Kredit qo'mitasi muhokamasiga taqdim qilinadi. Mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan vazifalar Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi tomonidan barcha hujjatlar qabul qilib olingandan so'ng 3 (uch) bank ish kunida amalga oshiriladi.

3.7. Garovdagi mulkni qisman garovdan chiqarishga ruxsat berilganda bankning kreditlar monitoringi bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linma tomonidan notarial idoraga garovdagi mulkni taqiqdan chiqarish bo'yicha aloqa xati tayyorlanadi va imzolatib yuboriladi va Bank dasturlari orqali taqiqdan yechiladi. Mazkur aloqa xati skanerlangan holda bank dasturiga biriktiriladi.

3.8. Garovdagi mulkni taqiqdan chiqarish bo'yicha ruxsat xatlari kredit to'liq yoki qisman so'ndirilgan kundan keyingi amaliyot kunida amalga oshiriladi. Ushbu holat Notarial idoraga yuboriladigan aloqa xatini imzolashda bank bosh buxgalteri tomonidan nazoratga olinadi.

3.9. Quyidagi hollarda kredit ta'minotidagi mulkni qisman garovdan chiqarish mumkin emas:

a) kredit ta'minotidagi mulk qisman garovdan chiqarilgandan so'ng kreditning garov bilan ta'minlanganlik darajasi bank ichki qoidalarida belgilab qo'yilgan me'yor talablari bajarilmaganda;

b) kredit ta'minotida qolayotgan mulklar mulk monitoringi natijasida yaroqsiz holatga kelganligi aniqlanganda;

c) kredit ta'minotidagi mulk qisman garovdan chiqarilgandan so'ng garovda qolayotgan dastgoh, kafillik, sug'urta polislarining kredit ta'minotidagi ulushi 30 foizdan ortib ketganda (Kredit qo'mitasi tomonidan istisno tariqasida ruxsat berilishi mumkin);

d) kredit ajratilishida Bosh bank vakolatli organining qarori/ruxsat xati bilan garovdan to'liq, qisman yoki alohida chiqarilishi qat'iy man etilganda;

e) qarzdorning joriy kreditlari oxirgi 3 oy davomida kredit to'lovlari oydan-oyga o'tib to'langanda;

f) qarzdor yoki mulk egasi tomonidan mulk hamda boshqa monitoringlarni o'tkazish imkoniyati yaratib berilmaganda;

g) kredit ta'minotida qolayotgan mulk egalari, shu jumladan kafil tomonidan rozilik berilmaganda;

h) yaxlit mulkning bir qismini garovdan chiqarib berish so'ralganida garovda qolayotgan qismini taqiqdan chiqarilayotgan qismisiz foydalanish va realizatsiya qilish imkonsiz bo'lgan hollarda;

i) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4-BOB. GAROV NARSASINI ALMASHTIRISH TARTIBI.

4.1. Garov narsasini almashtirish uchun mijoz tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) qarzdorning asoslantirilgan murojaatnomasi;

b) garovga taqdim etilayotgan mulkning hujjatlari;

c) garovda qolayotgan mulk egasining (ta'sischilarining) hamda kredit ta'minoti uchun taqdim etilgan kafil egasining (ta'sischilarining), kredit qaytmaslik xatari yuzasidan taqdim etilgan sug'urta polisi taqdim etgan sug'urta kompaniyasining vakolatli organi roziligi (Kredit ta'minotidagi boshqa mulklar kredit qoldig'i uchun 125 foizdan ortiq ta'minot bo'lgan holatlar bundan mustasno). "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligi taqdim qilingan kreditlarda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ ning rozilik xati olinishi shart;

d) garovga taqdim etilayotgan mulk egasining (ta'sischilarining) roziligi;

e) zarur hollarda qarzdor korxonaning vakolatli organlari roziligi.

5. Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi tomonidan qabul qilib olinadi.

4.2. Mijoz tomonidan garovga taqdim qilinayotgan mulk qiymatini kelishuv dalolatnomasi tuziladi va Baholash komissiyasi a'zolari, mijoz hamda mulk egasi tomonidan imzolanadi.

4.3. Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi garovda qolayotgan mulklar bo'yicha mulklarni ko'zdan kechirgan holda mulk monitoringi o'tkazadi hamda monitoring dalolatnomasi va mulklarning fotosuratlarini ilova qiladi. Agar oxirgi mulk monitoringi mijoz tomonidan garov almashtirish loyihasi yuzasidan hujjatlar taqdim qilingan kunga qadar 3 (Uch) oy ichida o'tkazilgan bo'lsa, qayta mulk monitoringi o'tkazilishi shart emas.

Garovga taqdim etilayotgan mulk garovdan chiqarilayotgan mulkka nisbatan likvidlik darajasi avvalgi mulkdan kam bo'lmagan mulk bo'lsa, garovda qolayotgan mulklar bo'yicha mulk monitoringi ko'zdan kechirmagan holda o'tkaziladi.

4.4. Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi tomonidan mijozning pul oqimlari, agar mavjud bo'lsa kafilning moliyaviy hisobotlari, mijoz tomonidan kreditni to'lov intizomi (kech qolib to'langan to'lovlar bo'yicha kechikish sabablari yoritiladi), garovda qolayotgan mulklarning holati tahlil qilinadi.

4.5 Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi tomonidan garovda qolayotgan mulklarning qiymatini bank kredit siyosatiga muvofiq belgilangan chegirma (diskont) qo'llanilgan holda o'rganiladi va xulosa tayyorlanadi hamda kredit qo'mitasi muhokamasiga taqdim etiladi.

Monitoring mutaxassisi tomonidan barcha hujjatlar qabul qilib olingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida mazkur tartibning 4.3 va 4.5 -bandlarida nazarda tutilgan ishlar amalga oshiriladi.

4.6. Sotuv ofisining monitoring mutaxassisi xulosasi hamda taqdim qilingan hujjatlar Kredit qo'mitasi tomonidan o'rganib chiqilib, qaror qabul qilinadi.

4.7. Kredit qo'mitasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilinganda mazkur Tartibda ko'rsatilgan tartibda amaliyotlar bajariladi.

4.8. Garov narsasini almashtirish yuzasidan tegishli ruxsat berilgandan so'ng monitoring mutaxassisi tomonidan 2 (ikki) bank ish kunida kredit, sug'urta va garov shartnomalariga o'zgartirishlar kiritilishi amalga oshiriladi.

4.9. Garovga taqdim etilayotgan mulkni garovga olish bo'yicha amaliyotlar bajarilgandan so'ng 1 (bir) bank ish kunida garovdan chiqarilayotgan mulkni garovdan chiqarish bo'yicha notarial idoraga aloqa xati tayyorlanadi va imzolatib yuboriladi. So'ngra garovdan chiqim qilinayotgan mulk bank dasturida garovdan chiqim qilinadi va garov reestridan o'chiriladi. Garovga taqdim etilgan mulkni sug'urta qilgan sug'urta kompaniyasining nomi bank dasturida aks ettiriladi.

4.10. Garov reestridan garov ma'lumotini chiqim qilinishi bosh bankning mas'ul xodimi tomonidan nazorat qilib boriladi.

4.11. Quyidagi hollarda garov narsasini almashtirish mumkin emas:

- a) kredit ta'minotiga taqdim etilayotgan mulk navbatdagi garov bo'lganda;
- b) kredit ta'minotiga taqdim etilayotgan mulk Bosh bank baholash guruhi tomonidan garovga olmaslik bo'yicha tavsiya berilgan yoki salbiy xulosa taqdim etilgan bo'lsa.
- c) kredit ta'minotidagi ko'chmas mulk, transport vositalari, maxsus vositalar, depozit (omonat), tilla buyumlar o'rniga dastgoh, kafillik, sug'urta polisi taqdim etilganda.
- d) kredit ta'minotida qolayotgan mulklar mulk monitoringi natijasida yaroqsiz holatga kelganligi aniqlanganda;
- e) garov narsasi almashtirilgandan so'ng kredit qoldig'iga nisbatan garovdagi mulklar bank ichki qoidalarida belgilab qo'yilgan ta'minot qiymati bilan ta'minlanmaganda;
- f) garov narsasi almashtirilgandan so'ng garovda qolayotgan dastgohlar, kafilliklar, sug'urta polislarning kredit ta'minotidagi ulushi 30 foizdan ortib ketganda (Kredit Qo'mitasi qaroriga asosan istisno tariqasida ko'rib chiqilishi mumkin).
- g) Bosh bank Kredit qo'mitasining qarorida kredit ajratilishida garovdan to'liq, qisman yoki alohida chiqarilishi qat'iy man etilganda;
- h) qarzdor tomonidan belgilangan tartibda monitoring o'tkazish yoki mulk egasi mulklarni monitoring qilish imkoniyati yaratib berilmaganda;
- i) kredit ta'minotida qolayotgan mulk egalarining roziligi berilmaganda;
- j) kredit ta'minotidagi kafillik taqdim etilgan korxonalar, YATT faoliyati tugatilganda yoki vaqtinchalik to'xtatilganda (Kafillik miqdori kredit qoldig'ining 125 foizidan ko'p bo'lgan holatlar bundan mustasno);
- k) qarzdor tomonidan faqat bir sohaga yo'naltirilgan mulklar kredit ta'minoti taqdim etilganda (tor doiradagi, misol uchun Temir yo'lga tegishli yuk vagonlari, Elektr tarmoqlari korxonalariga tegishli elektr shitlar va h.k.), Kredit qo'mitasi tomonidan ruxsat berilgan holatlar bundan mustasno;
- l) yaxlit mulkning bir qismini garovdan chiqarib berish so'ralganida garovda qolayotgan qismini taqiqdan chiqarilayotgan qismisiz foydalanish va realizatsiya qilish imkonsiz bo'lgan hollarda;
- m) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5-BOB. GAROVDAGI MULKLAR BO'YICHA BOSHQA HARAKATLAR

5.1. Garovdagi transport vositasini tasarruf etish, sotish, garovga qo'yish, hadya qilish uchun boshqa shaxslarga ishonchnoma berilishi uchun rozilik xati berilishi mumkin emas. Kredit bo'yicha to'lovlar oxirgi 3 (uch) oy davomida oydan-oyga o'tib to'langan bo'lsa, kredit ta'minotidagi mulk sotib yuborilgan bo'lsa yoki boshqa shubhali holatlar aniqlanganda ishonchnoma rasmiylashtirish, ijara shartnomalari tuzish uchun rozilik xati berilishi qat'iy taqiqlanadi. Faoliyati avtotransport vositalarini ijaraga berish yoki transport xizmati ko'rsatish bo'lgan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tabirkorlarga ajratilgan kreditlar bundan mustasno.

5.2. Kredit ta'minotidagi transport vositasini boshqarish uchun ishonchnoma berilishi, ijara shartnomalari tuzish uchun rozilik xati taqdim qilinishi uchun mijoz tomonidan asoslantirilgan

murojaatnoma hamda transport vositasini ishonchnoma asosida boshqaruvchi shaxsning pasport nusxasi taqdim qilinadi. Bankning rozilik xatida ishonchnoma berilishi ko'zda tutilgan shaxsning ismi, familiyasi va otasining ismi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

5.3. Sug'urta shartnomasida transport vositasi uchinchi shaxs tomonidan boshqarilganda sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi amalga oshirilishi ko'zda tutilmagan bo'lsa, transport vositalarini boshqarishga ishonchnoma berish, ijara shartnomalari tuzish uchun rozilik berilmaydi.

5.4. Mazkur rozilik xatini tayyorlash jarayoni bosh bank mas'ul xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

5.5. Kredit ta'minoti uchun garovga olingan qarzdorga tegishli ko'chmas mulkni ijaraga berish uchun rozilik xati qarzdorning biznes rejasida ushbu mulkni ijaraga berish orqali daromad olishi ko'zda tutilgan holatlarda hamda garovdagi mulk qarzdorning ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarda beriladi.

5.6. Quyidagi hollarda kredit ta'minotidagi ko'chmas mulk bo'yicha ijara shartnomasi tuzishga rozilik berilmaydi:

a) qarzdorning joriy kreditlari oxirgi 3 oy davomida kredit to'lovlari oydan-oyga o'tib to'langanda.

b) ijaraga berilayotgan ko'chmas mulk qarzdorning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lganda;

c) kredit ta'minotidagi mulk sotib yuborilganligi aniqlanganda;

d) boshqa shubhali hollarda.

5.7. Garovdagi mulkni boshqarish uchun ishonchnoma berish yoki ijaraga berilishi uchun beriladigan rozilik xatlari bosh bank vakolatli xodimi tomonidan imzolanadi.

5.8. Garovdagi mulk egaligini o'zgartirish loyihalari kredit qoldig'idan qat'iy nazar tegishli Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

5.9. Barcha hollarda kredit ta'minotidagi mulkning egalik huquqini o'zgartirish yuzasidan bank huquqshunosi tomonidan xulosa beriladi.

5.10. Garovdagi ko'chmas mulklarning hujjatlariga o'zgartirish kiritilganda kreditning ushbu mulk bilan ta'minlangan qismi boshqa likvidlik darajasi avvalgi mulkdan kam bo'lmagan boshqa mulk bilan ta'minlangandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda garov ta'minotini almashtirish mazkur tartibda belgilangan vakolatlar darajasida ko'rib chiqiladi. Berilgan ruxsatlarning to'g'riligi va bank manfaatlariga zarar yetkazmasligi uchun ruxsat bergan shaxslar mas'uldirlar.

5.11. Avtotransport vositalarining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomasi yaroqsiz holga kelganligi yoki yo'qolganligi, yoqilg'i turi o'zgarganligi sababli avtotransport vositalarining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomasini almashtirish, transport vositasining to'la yoki yuksiz vaznini o'zgartirish uchun taqiq saqlangan xolda ruxsat xatlari berish sotuv ofislari boshlig'i ruxsat xati asosida amalga oshiriladi.

5.12. Garov harakati bo'yicha loyihalar tegishli Kredit qo'mitasi tomonidan Kredit qo'mitasi tomonidan 3 bank ish kunida ko'rib chiqiladi;

5.13. "ANOR BANK" AJ oldidagi majburiyatlarni ta'minlash uchun garovga qo'yilgan garov obyektini mijozning boshqa bankdan olinayotgan kredit ta'minoti uchun mijoz tomonidan garovga taqdim qilinishi uchun bankning tegishli Kredit qo'mitasi ijobiy qarori asosida rozilik xati taqdim qilinadi;

5.14. Quyidagi holatlarda rozilik xati berilmaydi:

a) kredit ajratilishida Bosh bank vakolatli organlarining/shaxslarning qarori/ruxsat xatida garov obyektini, navbatdagi garov sifatida boshqa banklarga garov sifatida ishlatilishiga rozilik berish qat'iyan man etilganda;

b) "ANOR BANK" AJ tomonidan baholangan garov qiymati (yoki garovga olingan qiymat) bilan qoplangan kredit qoldig'i so'ndirilmagan bo'lsa (ajratilgan kreditning asosiy qarzi kamaymagan bo'lsa);

c) qarzdor yoki mulk egasi tomonidan mulk hamda boshqa monitoringlarni o'tkazish imkoniyati yaratib berilmaganda;

d) navbatdagi garov obyektidan tashqari garovdagi dastgohlar, kafilliklar, sug'urta polislarining kredit ta'minotidagi ulushi 30 foizdan ortib ketganda (Kredit qo'mitasi qaroriga asosan istisno tariqasida ko'rib chiqilishi mumkin);

e) navbatdagi garovga so'ralayotgan obyekt qaysi bank tomonidan qancha miqdorda garovga olinayotganligi to'g'risida bank ma'lumotnomasi taqdim etilmaganda;

f) sotuv ofislari tomonidan mustaqil ko'riladigan garov harakatlari loyihalarida qarzdorning joriy kreditlari oxirgi 3 oy davomida kredit to'lovlari oydan-oyga o'tib to'langanda;

g) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6-BOB. YAKUNIY QOIDALAR.

6.1. Ushbu Tartib bankning garov ta'minotiga o'zgartirish kiritish bo'yicha asosiy hujjati hisoblanib, Tartib ko'rsatmalariga to'liq amal qilish tegishli mas'ul xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

6.2. Mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan hal etiladi.

6.3. Mazkur "ANOR BANK" AJda "Garov mulklarini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish va garov narsasini almashtirish tartibi" Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Boshqaruv Raisi















Kiritilgan:

Yuridik shaxslarning muammoli
aktivlari bilan ishlash departamenti
direktori

Sh.Akramov

Sh.Najmiddinov

Kelishilgan:

Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari		E.Nadjimitdinov
Boshqaruv Raisining o'rinbosari		E.Kadirov
Boshqaruv Raisining o'rinbosari		A.Saydullayev
Boshqaruv Raisining o'rinbosari		S.Xan
Boshqaruv Raisining o'rinbosari		M.Nurutdinova
Boshqaruv Raisining o'rinbosari		M.Avazov
Boshqaruvchi direktor		A.Bakiyev
Bosh buxgalter		U.Babayev ✓
Yuridik boshqarma boshlig'i		T.Zanaxov
Risk Menejment Departament direktori		D. Ibragimova ✓
Ichki nazorat departament direktori		M.Pulatova ✓
Ichki audit departamenti direktori		S.Usmanov ✓
Komplaens-nazorat boshqarmasi boshlig'i		D.Xushnazarov ✓
Chakana portfelni sudgacha undiruv departamenti direktori		S.Nodirov ✓